

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.T.Zokirov</b>	
Lingvistik interferensiyaning mohiyati hususida .....	939
<b>N.R.Umarova, O.T.Maxmudova</b>	
O'zbek tilshunosligida nutq tovushlarining tasnifi masalasi .....	944
<b>M.A.Matmusayeva</b>	
O'yin nomlarida lingvomataniy xususiyatlarning ifodalanishi .....	949
<b>D.M.Buzrukova</b>	
"Muhabbat" konsepti hissiy olam manzarasining muhim elementi sifatida .....	953
<b>N.A.Ibragimova, N.D.Axmedova, A.Sh.Tursunov</b>	
Tilshunoslikda modus tushunchasi .....	957
<b>S.M.Zokirova G.Sh.Xusanova</b>	
Sosiolingvomataniyatshunoslik kontekstida bolalar o'yinlari tushunchasi .....	961
<b>D.M.Yuldasheva</b>	
Bolalarga xos matnlarda realiyalarning ifodalanishi .....	966
<b>T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov</b>	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi .....	971



UO'K: 811.111:811.512.

**SOSIOLINGVOMADANIYATSHUNOSLIK KONTEKSTIDA BOLALAR O'YINLARI TUSHUNCHASI****THE CONCEPT OF CHILDREN'S GAMES IN THE CONTEXT OF SOCIOLINGUOCULTUROLOGY****ПОНЯТИЕ ДЕТСКОЙ ИГРЫ В КОНТЕКСТЕ СОЦИОЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ****Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna<sup>1</sup>** <sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori(DSc), dotsent**Xusanova Gulasal Shuhratjon qizi<sup>2</sup>** <sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti**Anotatsiya**

Ushbu maqolada sotsiolingvokulturologiya terminiga izoh berilib, uning qaysi sohalar bilan o'zaro aloqador ekanligi to'g'risida ma'lumot berilgan. Shu bilan bir qatorda ushbu keng tarmoqli sohada ish olib borgan olimlar va ularning fikrlari keltirilgan. Bolalar o'yinlarining madaniy muhit bilan o'zaro bog'liq ekanligi tadqiqot strategiyasida namoyon bo'lgan. O'yinlar haqida antropologik tadqiqotlar ularning madaniyat o'zgarishi ya'ni evolyutsiya, tarqalish yoki omon qolish tushunchasi orqali va madaniyatning boshqa bir vaqtning o'zida bolalarni tarbiyalash amaliyoti, din, marosim, dam olish, urush, ekologiya kabi jihatlari bilan chambarchas bog'liqligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada o'yinlar antikvarizm, evolyutsionizm, diffuzionizm, funksionalizm, strukturalizm kabi usullarda tadqiq qilindi. Shuni ta'kidlashimiz kerakki, bolalarning nafaqat xalq o'yinlari balki boshqa davlat o'yinlarining ham tanishligi va o'ynashi bu ularning tasavvuriy olamining kengayishiga, shu bilan birga fikrlash qobiliyatining o'sishiga, dunyoni tanish uchun qiziqishlari ortishiga amaliy yordam beradi.

**Abstract**

The term sociolinguoculturology and the information about its interconnected fields have been explained in the article. In addition, the scientists opinions who worked in this field were presented. The fact that children's games are connected with the cultural environment has been shown in the research strategy. Anthropological studies of games are closely related to cultural change, i.e., evolution, diffusion, or survival, and to other aspects of culture, such as child-rearing practices, religion, ritual, recreation, warfare, and ecology have been shown. Also, in the article games were studied from the viewpoint of antiquarianism, evolutionism, diffusionism, functionalism, structuralism. It should be noted that familiarization and playing not only folk games, but also other nations' games will help children to expand their imagination, at the same time increase their thinking ability, their interest in knowing the world.

**Аннотация**

В данной статье поясняется термин социолингвокультурология и дается информация об областях, с которыми он взаимосвязан. Кроме того, представлены ученые, работавшие в этой широкой области, и их мнения. В стратегии исследования показано, что детские игры взаимосвязаны с культурной средой. Антропологические исследования игр тесно связаны с культурными изменениями, то есть эволюцией, распространением или выживанием, а также с другими аспектами культуры, такими как практика воспитания детей, религия, ритуалы, отдых, война и экология. Также, в статье игры изучаются в таких направлениях, как антикваризм, эволюционизм, диффузионизм, функционализм, структурализм. Следует отметить, что ознакомление и игра не только в народные игры, но и в другие народные игры помогут детям расширить их воображение, одновременно повысить мыслительные способности и интерес к познанию мира.

**Kalit so'zlar:** sotsiolingvokulturologiya, madaniyatshunoslik, sotsiolingvistika, madaniy urf-odatlar, sotsiologiya, bolalik, jamiyat, sivilizatsiya.

**Key words:** sociolinguoculturology, cultural studies, sociolinguistics, cultural traditions, sociology, childhood, society, sivilization.

**Ключевые слова:** социолингвокультурология, культурология, социолингвистика, культурные традиции, социология, детство, общество, цивилизация.

## KIRISH

Bolalar o'yinlari insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, har bir jamiyatda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular faqat bolalarning o'yin-kulgisi emas, balki ularning ijtimoiylashuvi, til o'rganishi va madaniy kodlarni o'zlashtirishi uchun muhim vositadir. Ushbu maqolada bolalar o'yinlari sosio-lingvo-madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Sotsiolingvomadaniyatshunoslik fanlararo tadqiqot sohasi bo'lib, u sotsiolingvistika va madaniyatshunoslik jihatlarini birlashtiradi. Bu soha til, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga, ijtimoiy-madaniy omillarning til, xulq-atvori va idrokiga qanday ta'sir qilishini, tilning madaniy o'ziga xosliklar va ijtimoiy tuzilmalarni qanday aks ettirishi va shakllantirishini tahlil qilishga qaratilgan. Sotsiolingvomadaniyatshunoslik tilni nafaqat aloqa tizimi, balki madaniy qadriyatlar, me'yorlar va an'analarni uzatish vositasi sifatida ham ko'rib chiqadi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar turli ijtimoiy guruhlardagi til o'zgarishini tahlil qilish, til stereotiplari va noto'g'ri qarashlarni o'rganish, madaniy o'ziga xoslikni shakllantirishda tilning rolini o'rganishni o'z ichiga olishi mumkin. Sotsiolingvomadaniyatshunoslik keng tarmoqli soha bo'lganligi sabab uni o'rganishga turli fanlar, jumladan, sotsiolingvistika, madaniyatshunoslik, antropologiya va sotsiologiyadan olimlar jalb etilgan. Dell Hayms, Erving Goffman, Klifford Geertz kabilar shular jumlasidandir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilning madaniyat bilan munosabatida muhim o'rin tutadi, degan g'oya asosida bir necha yillar davomida til va madaniyat o'rtasidagi aloqalar, etnolingvistika bo'yicha ma'ruzalar o'qildi, maqolalar yozildi. Dell Hayms – amerikalik tilshunos va antropolog, sotsiolingvistika asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning faoliyati til, madaniyat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tushunishning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. U til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikning ikki turi ta'kidlangan deb hisoblaydi. Birinchisi, ayniqsa Malinovski va boshqa ingliz antropologlari bilan bog'liq bo'lib, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini bir xil ijtimoiy harakatning turli jihatlarini sifatida ta'kidlaydi. Ikkinchisi, Levi Strauss va boshqa fransuz tanqidchilari bilan bog'liq, parallel tizimlar yoki kollektiv psixologiya mahsulotlari sifatida til va madaniyat o'rtasidagi uyg'unlik bilan ko'proq bog'liq. Bunday aloqalarning mavjudligi ko'pchilik tomonidan qabul qilindi va biz, mazkur ikki nuqta bir-biriga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin edi. Til va madaniyat jamiyat farzandlari tomonidan ikki alohida soha sifatida o'zlashtirilmaydi. Ko'plab inson faoliyatida til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi shuni anglatadiki, birinchisi ikkinchisini o'rganadigan vosita bo'lib xizmat qiladi. Til madaniy jihatlarining transport vositasi bo'lganligi sababli, tilning tarkibiy tuzilishi madaniy shakllarda aks ettirilganligi ajablanarli emas.

Demak, sotsiolingvomadaniyatshunoslik bu jamiyat, madaniyat va til bilan uzviy bog'liq tushuncha ekan, ushbu unsurlarga alohida to'xtalib o'tishimiz ham joiz deb o'ylayman. O'zbek tilimizdagi ko'plab ensklopedik lug'atlarga nazar solar ekanmiz, ularda *madaniyat* arabcha madina (shahar, kent) so'zidan kelib chiqqanligi yozilib, u tabiat va o'zaro munosabatlar aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usulidir, deb talqin qilinadi. "Madaniyat alohida shaxs (individ), sotsial guruh yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradigan tushunchadir. Dastlab, madaniyat tushunchasi insonning tabiatga nisbatan maqsadga muvofiq ta'siri (yerga ishlov berish, kultivatsiya qilish, lotincha "culture" so'zidan olingan), hamda inson o'zini tarbiyalash, o'ziga ishlov berish ma'nolarida ifodalangan. Keyinchalik madaniyat tushunchasi vositasi "svilizatsiya" (taraqqiyot) bilan bog'liq mazmun tushinala boshlandi. Madaniyat inson faoliyatining mahsuli va sifat ko'rsatkichi sanaladi. Insonning o'zi ham pirovard natijada madaniyat mahsulidir. Jamiyatdagi madaniy muhit qanday bo'lsa, inson ham shunday shakllanadi" [2,230]. Madaniyat tushunchasini jamiyat tushunchasidan farqlash mumkin, ammo ular o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Madaniyat shu jamiyatdagi odamlarning *turmush tarzi*, urf-odat, qadriyat va rasm rusumlari, shu bilan birga ular ishlab chiqaradigan moddiy noz-ne'matlarga aloqador tushuncha. "Jamiyat" esa umumiy madaniyatga mansub bo'lgan individlarni o'zaro bog'lab turadigan *aloqalar tizimidir*. "Birorta ham madaniyat jamiyatsiz yashay olmaydi, shuningdek birorta ham jamiyat madaniyatsiz mavjud bo'la olmaydi. Madaniyat bo'lmasa, biz to'la ma'nodagi "odam" bo'lmasdik. Biz unda fikrlarimizni ifodalash uchun tilga, o'z-o'zimizni anglash qobiliyatiga ega bo'lmasdik, o'ylash va mulohaza yuritish qobiliyatimiz esa juda cheklangan bo'lar edi". [4,52]

## ILMIY AXBOROT

O'yinlar o'tmishdagi ham, hozirgi ham ma'lum jamiyatlarning madaniy inventarlaridagi universal yoki deyarli universal komponentlardan biridir. O'yinlarni o'rganish o'tgan asrda antropologik tadqiqotlarda kichik, ammo nisbatan izchil joyni egalladi. Turli madaniyatlarda o'yinlarning xilma-xilligi va ahamiyatini o'rganish, odatda, o'z davrining asosiy nazariy yo'nalishlarini aks ettiradi va shuning uchun antropologlar o'z e'tiborini qaratgan ko'plab asosiy muammolarni qamrab oladi. O'yinlar bo'yicha antropologik tadqiqotlar ularning madaniyat o'zgarishi (evolyutsiya, tarqalish yoki omon qolish tushunchasi orqali va madaniyatning boshqa bir vaqtning o'zida bolalarni tarbiyalash amaliyoti, din, marosim, dam olish, urush, ekologiya kabi jihatlari bilan bog'liqligi bilan bog'liq. O'yinlarga bo'lgan qiziqish, asosan, madaniyat va jamiyatning turli qismlari yoki quyi tizimlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi tushunchadan kelib chiqadi. Ushbu e'tiqod o'yinlarning tuzilishi va funksiyasi berilgan madaniy muhit bilan o'zaro bog'liqligini taxmin qiladigan tadqiqot strategiyasida namoyon bo'ladi. Avedon va Sutton-Smit o'yinlar erta antropologik tadqiqotlarning kelib chiqishi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Garchi kelib chiqishi bilan bog'liq tashvish biroz kamaygan bo'lsa-da, o'yinlar va o'yin turlarining taqsimlanishi va funksiyalari bilan bog'liq bir qator savol qolmoqda. Garry E. Chick "Cross-cultural study of games" maqolasida o'yinni beshta nuqtai nazardan tadqiq qildi. Bularga:

- 1) antikvarizm, tasviriy yozib olish usuli;
- 2) evolyutsionizm, madaniyatning oddiydan murakkabgacha rivojlanishi haqidagi g'oya;
- 3) diffuzionizm, madaniyat xususiyatlarining bir jamiyatdan ikkinchisiga tarqalishi;
- 4) funksionalizm, madaniyatning turli tarkibiy qismlari jamiyat faoliyatiga hissa qo'shishi haqidagi tushuncha;
- 5) strukturalizm, bu madaniyat qismlarning tartibli joylashuvidan iborat.

Ushbu istiqbollarning har biri o'yinlarni madaniyatlararo o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Bolalarning nafaqat xalq o'yinlari balki boshqa davlat o'yinlarining ham tanishligi va o'ynashi bu ularning tasavvuriy olamining kengayishiga, shu bilan birga fikrlash qobiliyatining o'sishiga amaliy yordam beradi.

### NATIJAR VA MUHOKAMA

Insonlarning rang-barang madaniy urf-odatlar orasida umumiy belgilar ham mavjud bo'ladi. Ulardan barcha jamiyatlar yoki deyarli barcha jamiyatlar uchun xos bo'lganlarini *madaniy universalialar* deb ataladi.[7] Murakkab grammatikali tilga ega bo'lmagan madaniyatlar deyarli yo'q. Barcha madaniyatlarda oilaviy tizimning muayyan shakllari mavjud bo'lib, ularning qadriyatlar bolalarga g'amxo'rlik qilish bilan bog'liq. Nikoh, diniy rituallar va mulk huquqi universalialar hisoblanadi. Antropologlar, shu bilan bir qatorda, san'at, raqs, bezaklar, o'yinlar, sovg'a berish odatlari, hazillar va gigiyena qoidalar mavjudligini aytadilar.[6]

Har bir insoniy madaniyat uchun til muhim vositalardan biri ekanligini hech kim inkor qilmaydi, garchi dunyoda odamlar minglab tilda so'zlashsalar ham. Hayvonlar bir-biri bilan muloqot qilishlari mumkin, lekin hayvonlarning birorta ham tili rivojlangan til hisoblanmaydi. Sotsiologiyada mashhur Uoshu ismli shimpanzeni kar-soqovlar uchun amerikacha belgili alifbo yordamida tilga o'rgatishdi; u yuzga yaqin so'z o'rgandi. [3,165] Uoshu bir necha sodda jumlar ham tuza olardi. "Bir mahkam quchoqla, kechir" – bu biror yomon ish qilib qo'ygandan keyin kechirim so'ramqchi ekanligini anglatardi. U bilan o'tkazilgan tajribalar boshqa shimpanzalar bilan o'tkazilganlaridan muvafaqqiyatliroq chiqqani uchun sotsiologiyaga oid adabiyotlarda uning dovrug'i tarqaldi. Lekin Uoshu grammatikaning biror qoidasini o'zlashtira olmadi, o'zi o'rgangan so'zlarni boshqa shimpanzalar ham o'rgata olmadi. Til bilan bir necha yil shug'ullanganligi sababli uning lingvistik qobiliyatlar ikki yoshli bolanikidan ancha past bo'ldi. Tilni biluvchi har bir inson bir necha ming so'zdan iborat lug'at boyligiga ega bo'ladi va bu so'zlarni shu qadar murakkab qoidalar bo'yicha aralashтира oladiki, bu qoidalarni tadqiq qilish uchun lingvistlar butun umrlarini sarflashlari ham mumkin.[5] Bunday murakkab ijtimoiylashuv jarayonini yosh bolalarga o'rgatish va esda qolarli o'yinlar, afsonalar bilan uqtirish mas'uliyatli burchdir. Ijtimoiylashuv shunday jarayonki, unda bola o'zi tug'ilgan madaniyatning mohiyatini tushunadigan, o'zini o'zi anglab boradigan bo'ladi.

Hozirgi davrda bolalik – inson hayotining ma'lum muayyan jarayoni, deb e'tirof etilgan. "Bolalar" "chaqaloqlar"dan farq qiladi. Bolalik bu chaqaloqlik va yoshlik o'rtasidagi palladir. "Bolalik g'oyasi", konsepti hozirgi ijtimoiy hayotning ko'p jihatlari singari, ikki yoki uch asr muqaddam paydo bo'lgan. An'anaviy jamiyatlarda yoshlar o'zlarining ancha uzoq davom etgan chaqaloqlik davridan

to'g'ri jamiyatdagi ishchi roliga o'tishgan. Fransuz tarixchisi Filipp Ar'ening aytishicha, o'rta asrlarda bolalik degan alohida davr bo'lmagan [1]. Bolalar o'sha davrda "kichkina katta yoshlilar" sifatida kattalarning yuzi, kiyimida xuddi kattalar kabi tasvirlangan. Bolalar kattalar ishtirok etgan ishlar va ko'ngil ochishlarda ishtirok etishgan. Bugun bizning bolalarga oddiy bo'lib ko'rinadigan alohida o'yinlar yoki o'yichoqlar ularda bo'lmagan. Ammo hozirgi jamiyatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar natijasida "bolalik"ning alohida mavqesi yemirilish ehtimoli ham bor. Buning sabablaridan biri sifatida tadqiqotchilar bolalar "shunchalik tez o'sishmoqdaki", bolalikning o'ziga xos xususiyatlari yuqolib borayotganligini ta'kidlashmoqda [9]. Bolalar hozirda ko'chalarda tengdoshlari bilan o'ynash, yangi narsalarni kashf qilish o'rniga televizor, telefonga bo'glanib qolishgan. Masalan eng kichik yoshdagi bolalar ham telefon xususiyatlarini zarur bo'lsa kattalardan yaxshi tushinadilar, yoki ularda katta yoshdagi insonlar ko'rishi uchun mo'ljallagan television dasturlarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'lib, "kattalar dunyosining" sirlarini oldingi davr bolalariga nisbatan erta bilib olishmoqda va buning natijasida ularning madaniyati, tili va dunyo qarashlarida ham keskin o'zgarishlar bo'lmoqda. Bu holat esa yaqin kelajakda jamiyatdagi keskin burilishlarga olib kelishligi mumkin.

Bolalar o'yinlari nomlari muayyan xalqning milliyligi, urf-odati, madaniyati, turmush-tarzini ifodalovchi til tizimidagi muhim lug'aviy vositalar bo'lib, tilni til sohibi bilan bog'liqlikda tahlil qilish g'oyasiga asosan ularni o'rganish, shu xalq madaniyati, ma'naviyati haqida muhim xulosalarga kelish uchun keng imkoniyat yaratadi. O'yin nomlarini ifodalovchi terminologiya o'zbek milliy an'analarini, urf-odatlarini anglatuvchi til tizimining tarkibiy qismi sifatida alohida maqomga ega bo'lgan, tilning ifoda imkoniyatlarini, til egalarining his-tuyg'ularini, ma'naviy olamini namoyon etuvchi lug'aviy birliklardir. O'yin nomlari atash vazifasi nuqtai nazaridan o'ziga xos lug'aviy birliklar bo'lib, ularning mohiyati nutq jarayonida so'z ifodasidagi milliy xoslanganlikni vujudga kelishi bilan belgilanadi. Bolalar o'yinlari nomlari muayyan xalq tilshunosligidagi milliy xoslangan leksika, ular qadimdan shu xalq lingvomadaniyatida mavjud bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, an'analar, ijtimoiy hayotda shu xalq turmush-tarzi bilan bog'liq bo'lgan narsa-hodisalarning nomlaridir. Shunga ko'ra, o'yin nomlari muayyan xalqning milliy o'ziga xosligini ifodalovchi lug'aviy birliklar sifatida boshqa tillar uchun lakuna, ya'ni muqobilsiz variant bo'lib qolaveradi.

**Bolalar o'yinlarining sosio-lingvistik ahamiyati**

Bolalar o'yinlari til o'rganish va rivojlanishida katta rol o'ynaydi. O'yin davomida bolalar yangi so'zlar va iboralarni o'rganadilar, tilning grammatika va sintaksisini amaliyotda qo'llaydilar. Shu bilan birga, o'yinlar bolalarga muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular doimo boshqa bolalar bilan til orqali o'zaro aloqada bo'lishadi. Masalan, o'zbek xalqining an'anaviy o'yinlaridan biri bo'lgan "Olma to'pi" o'yini orqali bolalar faqat jismoniy faoliyatni emas, balki birlari bilan til orqali muloqot qilishni ham o'rganadilar.

**Bolalar o'yinlarining ijtimoiy funksiyalari**

Bolalar o'yinlari ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ular orqali bolalar jamiyatning ijtimoiy me'yor va qadriyatlarini o'zlashtiradilar. O'yin davomida bolalar o'zaro hamkorlik qilish, raqobatlashish, g'alaba va mag'lubiyatni qabul qilish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydilar. Masalan, "Chumoli o'yin" o'yinida bolalar birgalikda harakat qilish va jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shu tariqa, bolalar o'yinlari bolalarni jamiyatga moslashishga va ijtimoiy rollarni o'zlashtirishga tayyorlaydi.

**Bolalar o'yinlarining madaniy ahamiyati**

Bolalar o'yinlari madaniy kodlarni o'zida aks ettiradi va avlodan-avlodga yetkazadi. Har bir jamiyatning o'ziga xos bolalar o'yinlari bo'lib, ular orqali milliy madaniyatning muhim jihatlari saqlanadi. O'yinlar milliy an'analar, urf-odatlar va qadriyatlarni bolalarga yetkazishning samarali vositasi hisoblanadi. Masalan, o'zbek xalqining "Qo'g'irchoq o'yini" bolalarni o'z milliy kiyim-kechak, musiqiy asarlar va an'analarga tanishtiradi.

**Bolalar o'yinlarining zamonaviy tendensiyalari**

Zamonaviy texnologiyalar va globalizatsiya jarayonlari bolalar o'yinlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda bolalar o'yinlari ko'pincha virtual makonda, kompyuter va mobil qurilmalarda o'ynaladi. Bu esa bolalarning ijtimoiylashuvi va til o'rganish jarayoniga yangi imkoniyatlar bilan birga yangi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Shu sababli, an'anaviy va zamonaviy bolalar o'yinlarini o'rganish va ularning o'zaro ta'sirini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

**XULOSA**

Demak, xalq o'yinlarini o'rganish, tadqiq qilish va uni yoshlarni tarbiyalash amaliyotiga joriy qilish, o'z qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va ma'naviy boyliklarimizning yuksaklikka ko'tarilishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Xalq yaratgan buyuk xazinani ehtiyot qilib saqlashimiz, milliylik bo'yog'ini asrashimiz hamda uni kelajak avlod uchun bekamu-ko'st yetkazishimiz zimmamizdagi asosiy vazifadir. Bolalar o'yinlari til o'rganish, ijtimoiylashuv va madaniyatni o'zlashtirish jarayonida muhim vosita hisoblanadi. Sosio-lingvo-madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan bolalar o'yinlarini tahlil qilish ularning ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. An'anaviy va zamonaviy bolalar o'yinlarini o'rganish orqali biz bolalarning rivojlanishiga va jamiyatning madaniy merosini saqlab qolishga xizmat qiluvchi samarali usullarni aniqlashimiz mumkin.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Aries Philippe / Centuries of Childhood // – Harmondsworth, 1973.
2. Falsafa qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent: Sharq, 2004. – 230 b.
3. Gardner Beatrice and Gardner Allon. / Teaching sign to a chimpanzee // Science, 1969. – 165 b.
4. Giddens A. / Sociology // – Toshkent: Sharq, 2002. – 52 b.
5. Linden Apes / Men and Language // – Harmonelwort, 1976.
6. Murdock George Peter. / The Councmoh Denominator of Cultures // in: Raph Linton (ed). – New York, 1945.
7. Oswall Windell Hilman. / Other peoples, other customs: World ethograpy and its history // – New York, 1972.
8. Safarov O. / O'zbek xalq bolalar o'yinlari // – Toshkent: Sharq, 2013. – 175 b.
9. Suransky Valerie P. / The erosion of Childhood // – Chicago, 1982.
10. Winn Marie. / Children without Childhood // – New York, 1983.
11. Виноградов Г. / Детский народный календар // Сибирская живая страна. Этногр. Сборнику Вип. II. – Иркутск, 1929. – С. 59-60.